

O'zbekiston-Tojikiston hamkorligi tobora mustahkamlanib bormoqda

**2020- yil 26-28 sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasining fan, adabiyot va madaniyat vakillari Tojikiston Respublikasida bo'lishdi. Mamlakatimiz delegasiyasida Fanlar akademiyasidan Navoiy bo'limi raisi Abdurazak Mirzaev ham ishtirok etdi.**



Dushanbeda sayohat avtobusda amalga oshirildi. Bu qo'shni mamlakatning yo'l bo'ylab joylashgan madaniy va tarixiy diqqatga sazovor joylari bilan tanishish imkonini berdi. Shunday qilib, delegasiya qadimiy yodgorlik "Xo'jand qal'asi" va Kamol Xo'jandining uy-muzeyiga tashrif buyurdi.

Tojikiston poytaxtida O'zbekiston olimlari, shoirlari, yozuvchilari va madaniyat arboblari Milliy kutubxonaga tashrif buyurdilar. U yerda "Biz do'stlarni izlaymiz" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilar turli sohalarda ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash istiqbollari muhokama qildilar. Shuningdek, tashrif buyuradigan joylar ro'yxatiga "Koxi Navro'z" madaniy-ko'ngilochar majmuasi va Milliy muzey kiritilgan edi. Delegasiya uch guruhga bo'lingan holda, har biri o'z hamkasblari bilan muzokaralar o'tkazdi.

Shuningdek, qo'shni respublikaning Milliy Fanlar akademiyasida A.Mirzaev Tojikistonlik olimlar bilan uchrashdi va ularga Navoiy bo'limida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va innovasion ishlanmalar va loyihalari haqida ma'lumot berdi, ularning aksariyati tojik tomonining qiziqishini uyg'otdi. Hususan, samarali muzokaralar natijasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Navoiy bo'limi hamda Tojikiston Fanlar akademiyasining Geologiya, zilzilalarga chidamli qurilish va seysmologiya instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi. Ushbu institutning xronikasi 1941 yilda boshlangan va bugungi kunda u Yer haqidagi fanlar sohasida tan olingan ilmiy tadqiqot markazlaridan biri hisoblanadi.

Hujjatda tomonlar geologiya, qimmatbaho va rangli metallarni qazib olish va qayta ishlash, noma'dan va texnogen minerallarni qazib olish va qayta ishlash, qayta tiklanadigan energiya, energiya tejamkorlik va ekologiya, zilzilalarga chidamli qurilish va seysmologiya sohalarida innovasion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishda hamkorlik qilishga tayyor ekanliklari ta'kidlangan. Tadqiqot va ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy faoliyat sohasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish ham ko'zda tutilgan.

Muhokamalarda tomonlar birgalikda fundamental, amaliy va innovasion xalqaro loyihalarni ishlab chiqish, ilmiy maqolalar va monografiyalar nashrga tayyorlash, ilmiy-texnik tadbirlarni tashkil etish, ilmiy kadrlar o'rtasida tajriba almashish uchun sharoit yaratish to'g'risida kelishib oldilar. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ikki mamlakat Fanlar akademiyalarining mavjud imkoniyatlaridan foydalanish kerak.

Ta'kidlash joizki, Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lishi bilan ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar yaxshilandi. Davlatimiz rahbarining Tojikistonga tarixiy tashrifi 2018 yil mart oyida bo'lib o'tgan. Bu ikki mamlakat munosabatlari tarixida yangi sahifani ochdi va davlatlarimiz o'rtasida to'planib qolgan muammolar majmuini hal qilish uchun qulay sharoit yaratdi.

So'nggi yillarda Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Shartnomalar imzolandi, ikki tomonlama hamkorlik rivojlanmoqda, ikki davlat savdo doiralari delegasiyalarining tashriflari amalga oshirilmoqda, madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar kengaymoqda. Xullas, 2017 yil 10-14 oktyabr kunlari O'zbekiston Respublikasida Tojikiston Respublikasining madaniyat kunlari bo'lib o'tdi, ularning maqsadi ikki do'st va qardosh davlatlarning madaniy aloqalarini mustahkamlash edi. Shuningdek, 2019 yil 11-15 noyabr kunlari Tojikiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining madaniyat kunlari bo'lib o'tdi.

2018 yil mart oyida Dushanbeda ikki mamlakat san'at ustalari ishtirokida "Do'stlik oqshomi" qo'shma madaniy dasturi tashkil etildi.

Ushbu safar umumiy tarix, madaniyat va urf-odatlar birlashtirgan qardosh xalqlarning do'stligi va hamkorligini mustahkamlash hamda mintaqa uchun birgalikda hal qilinishi mumkin bo'lgan va hal qilinishi kerak bo'lgan umumiy muammolarni yechishiga qaratilgan yana bir qadamdir.

**Fevzi ISTABLAEV,  
FA Navoiy bo'limining matbuot kotibi.**